

**110 KV VA UNDAN YUQORI KUCHLANISHLI HAVO
ELEKTR UZATISH TARMOQLARIDA ISHLOVCHILARNI
BEVOSITA TOK O'TKAZUVCHI QISMLARGA TEGIB
ISHLASHI UCHUN MO'LJALLANGAN
IZOLYASIYALOVCHI QURILMA VA MOSLAMALAR
TAHLILI**

Z.I. Jumayev

Navoiy davlat konchilik instituti
“Elektr energetikasi” kafedrasi assistenti

Sh.Sh.Abdullayev

Navoiy davlat konchilik instituti
“Elektr energetikasi” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Izolyasiyalovchi qurilma va moslamalar 110 kV va undan yuqori kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlarida bevosita tok o'tkazuvchi qismlarga (simga, armaturaga) tegib ishlashda, ishchi – xodimni uskunalarining yerga ulangan qismidan va boshqa kuchlanishga ega bo'lgan qismlardan izolyasiya qilish uchun mo'ljallangandirlar.

Kalit so'zlar: Elektr energiya, havo elektr uzatish liniyalari (HEUL), izolyatsiyalovchi qurilma, izolyasiyalovchi qisqichlar, elektr kuchlanish.

Izolyasiyalovchi qurilmalarga, elektr izolyasiyalovchi (bakelit, shishaplastik va boshqa) materiallardan tayyorlangan shtangalar, narvonlar, tortqilar va arqonlar kiradi.

Moslamalarga ko'taradigan savatlar, sim oldida ishslash uchun maxsus xonalar, simda harakat qiluvchi aravachalar, tortuvchi qurilmalarning qo'shimcha qismlari, ko'tarmalar (domkratlar), bloklar va hokazolar kiradi. Moslamalar elektr izolyasiyalovchi materiallardan yoki metalldan yasalishi mumkin.

Ishchi tok o'tkazuvchi qismlarga tegishidan oldin, uning shaxsiy ekranlovchi komplekt tok o'tkazuvchan qismlarga maxsus shtanga yordamida (potensiallarni tenglashtirish uchun) ulanishi zarur. Ulovchi o'tkazgichning ko'ndalang kesimi 4 mm^2 dan kam bo'lmashligi lozim. Simga yaqinlashish va unga keyinchalik tegish, izolyasiyalovchi narvon shtanga yoki arqonlarga osilgan kabina yordamida amalga oshirilishi mumkin. Izolyasiyalovchi narvonni alohida bo'laklarda yig'ish mumkin. Narvonning yuqori qismi ustunni traversiga mahkamlash uchun qisqich va sharnir bilan jihozlanadi. Bu o'z navbatida narvonni o'zaro perpendikulyar bir yoki ikki tekislikda (maydonda) erkin harakatlanishini ta'minlaydi.

Izolyasiyalovchi tortqi, simlar va osilgan ilgaklar og'irligini o'ziga olish uchun xizmat qiladi. Simga yaqinlashish uchun kabina ishlatilgan taqdirdagina, izolyasiyalovchi tortqilarni ushbu kabina, hamda undagi ishchi og'irligini o'ziga olish uchun ishlatish mumkin.

Izolyasiyalovchi arqonlar, asboblarni yuqoriga olib chiqish, narvon va ko'chma minoralarni joyidan qo'zg'atish, hamda ishchi holatiga keltirish, montyorning simda, narvonda, shular bilan birga, kabinada turgan vaqtida xavfsizligini ta'minlashga mo'ljallangandir.

Izolyasiyalovchi arqonlar sintetik toladan (masalan polipropilen) tayyorlangan bo'lib, uning tarkibiga tabiiy tola aralashtirilmagan bo'lishi kerak.

Izolyasiyalovchi arqonlardan tashqari barcha izolyasiyalovchi qurilma va moslamalarda kuchlanish klassi, ruxsat etilgan yuk ko'tarish qobiliyati va keyingi sinov muddati aniq

ko‘rinishi zarur. Agar narvon alohida bo‘laklardan yig‘ilgan bo‘lsa, belgi har bir bo‘lagiga bositadi.

Izolyasiyalovchi arqonlarda yoki ularga bog‘langan sinov muddati to‘g‘risidagi belgilarda, aniq ko‘rinadigan «*Faqat kuchlanish ostida ishlatish uchun*» yozuvi bo‘lishi lozim.

Izolyasiyalovchi qisqichlar. Izolyasiyalovchi qisqichlar saqlagichlar bilan ishslash uchun, izolyasiyalovchi qoplamlalar va to‘siclarni o‘rnatish, hamda olish va shunga o‘xhash ishlarni bajarishda qo‘llaniladi. Izolyasiyalovchi qisqichlar o‘rniga, zaruriy hollarda universal kallakli izolyasiyalovchi shtangalarni qo‘llash lozim.

Qisqichlar ishchi (qisqich tishlari), izolyasiyalovchi qism va dastakdan tashkil topgan. Izolyasiyalovchi qisqichning o‘lchamlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Izolyasiyalovchi qisqichlarning minimal o‘lchamlari

Elektr uskunalarining nominal (kV)	kuchlanishi,	Uzunligi, (mm)	
		Izolyatsiyalovchi qism	dastagi
1 kV gacha	Cheklanmaydi, qo‘llashga qulay holda belgilanadi		
6 kV dan 10 kV gacha	450	150	
10 kV dan yuqori, to 35 KV gacha	750		200

Elektr o‘lchovchi qisqichlar. Elektr o‘lchovchi qisqichlarga qo‘yilgan umumiy texnik talablar, «*Elektr uskunalarini ishlatishda xavfsizlik texnikasi qoidalari*» da keltirilgan.

Elektr o‘lchovchi qisqichlar, elektr uzatish tarmoqlarida ularning yaxlitligini buzmasdan tarmoqdagi tok, kuchlanish va quvvatni o‘lhash uchun ishlatiladi.

10 kV kuchlanishgacha bo‘lgan elektr uskunalarida ishlatiladigan elektr o‘lchovchi qisqichlar ishchi, izolyasiyalovchi qismlar va dastakdan tashkil topgan. Qisqichning ishchi qismi ochilib yopiladigan magnit o‘tkazgichdan, chulg‘amdan va olib qo‘yiladigan yoki ichiga o‘rnatilgan o‘lchov asbobidan tashkil topgan.

Izolyasiyalovchi qismi va dastagi esa, elektr izolyasiyalovchi materialdan tayyorlangan, hamda minimal uzunligi 380 mm, dastaginiki 130 mm bo‘lishi lozim.

1000 V kuchlanishdan yuqori elektr uskunalarining zanjirlarida o‘lchovchi qisqichlar bilan foydalanilganda, chiqariladigan asboblarni ishlatish, shuningdek, o‘lchov chegarasini tok o‘tkazuvchi qismlardan qisqichlarni olmay turib almashlab ular man qilinadi. O‘lhash ishlari olib borilayotganda, qisqichni osilib turgan holda ushslash lozim.

1000 V kuchlanishgacha bo‘lgan elektr uskunalari uchun qo‘llaniladigan qisqichlar, ishchi qismdan (ajratgichli magnit o‘tkazgich, chulg‘am va o‘lchov asbobidan), hamda bir vaqtning o‘zida izolyasiyalovchi qisqli tayanch va dastak vazifalarini bajaruvchi korpusdan iborat.

Kuchlanish ko‘rsatgichlari. Kuchlanish ko‘rsatgichini ishlatishdan oldin uning ishga yaroqliligi, maxsus asboblar bilan yoki yaqin yerda joylashgan va oldindan kuchlanish ostidagi tok o‘tkazuvchi qismlarga yaqinlashtirish bilan tekshiriladi (1-rasm).

Kuchlanish ko‘rsatgichini ishlatish jarayonida, uni tok o‘tkazuvchi qismlar lampasida nurlanish paydo bo‘ladigan masofaga qadar yaqinlashtirish kerak. Yaqinlashtirilgan vaqtida, lampada nurlanish paydo bo‘lmagan hollardagina, asbobni tok o‘tkazuvchi qismga bevosita tekkizish mumkin.

Kunduzgi yorug‘lik vaqtida, ochiq taqsimlovchi uskunalarda, havo elektr uzatish tarmoqlarida va hokazolarda ishslash jarayonida lampa nurlanishini yaxshi kuzatish uchun ular oftobdan to‘suvchi moslamalar bilan ta’milanishi lozim.

Qoida bo'yicha havo elektr uzatish tarmoqlarida kuchlanish yo'qligi UVNB tipidagi kontaktsiz kuchlanish ko'rsatgichi bilan tekshirilishi lozim. Kuchlanish yo'qligi, havo elektr uzatish tarmoqlarining tayanchlaridan yoki teleskopik minora (gidroko'targich) dan UVN-10 va shunga o'xshash kuchlanish ko'rsatgichlari bilan tekshirilganda, ularning ishchi qismi tayanchdagi tushirilgan yerga ulagichning bo'lisdidan, hamda teleskopik minora (gidroko'targich) shassisi yerga ulanganligidan qat'iy nazar yerga ulanishi shart (metall tayanchlarda ishlashdan tashqari).

Kuchlanish ko'rsatgichining ishchi qismi, uning ishchi ko'ndalang kesimi 4 mm^2 bo'lgan yumshoq misli sim bilan tunukadan tayyorlangan maxsus halqasimon uchlikka ega bo'lgan, mis sim yordamida yerga ulanadi. Kuchlanish ko'rsatgichining yerga ulagich simini havo elektr uzatish tarmog'i simlarini yerga ularshda foydalilanilgan, avvallo (birinchidan) yerga ulangan ko'chma yerga ulagichga va havo elektr uzatish kuchlanishi indikatsiyasi uchun ustundan tushirilgan yerga ulagichga ularsh uchun ruxsat beriladi.

Kuchlanish yo'qligini tekshirish va himoya yerga ulagichini o'rnatishda yerdagi ulagich simiga (tushirilgan yerga ulagichga) tegish mumkin emas.



1-rasm. 6 kV dan 220 kV gacha bo'lgan yuqori kuchlanish ko'rsatkichlari va 6 kV dan 10 kV gacha bo'lgan fazalar bog'liqligini tekshiruvchi kuchlanish ko'rsatkichlari 1000 V dan yuqori kuchlanishni ko'rsatuvchi gazorazryadli indikator lampali asboblar. 1000 V gacha va undan yuqori kuchlanish ko'rsatgichlariga qo'yilgan umumiy texnik talablar, «Elektr uskunalarini ishlatalishda xavfsizlik texnikasi qoidalari» da keltirilgan.

Elektr uskunalarda kuchlanish bor yoki yo'qligini aniqlashga mo'ljallangan ko'rsatkichlar, qo'lda olib yuriladigan kuchlanish ko'rsatgichlaridir.

Kuchlanish ko'rsatgichlarining ishlashi, gazorazryadli indikator lampadan sig'im toki o'tganda yonish jarayoniga asoslangan.

Kuchlanish ko'rsatgichi ishchi, izolyasiyalovchi qismlar va dastakdan tashkil topgan.

Ishchi qismiga uchlik-kontakt, gazorazryadli lampa va kondensatorlar kiradi. Izolyasiyalovchi qism ishchi qism bilan dastak oralig'ida joylashgan bo'lib, bir necha elementdan yasalgan bo'lishi mumkin. Teleskopik konstruksiyalarni ishlatalishga ham ruxsat beriladi.

International Conference on Developments in Education
Hosted from Amsterdam, Netherlands

<https://econferencezone.org>

April

30th 2022

Kuchlanish ko'rsatgichining sezgirlingi, uning lampasi past kuchlanishda yonishi bilan, ya'ni signal lampasining barqaror nurlanishi bilan tavsiflanadi.

1000 V dan yuqori kuchlanishda qo'llaniladigan ko'rsatgichning yonish kuchlanishi, ushbu elektr uskunalarini me'yoriy (nominal) kuchlanishining 25 foizini tashkil qilishi zarur.

Kuchlanish ko'rsatgichining o'lchamlari 2-jadvalda keltirilgan o'lchamlardan kam bo'lishi kerak emas.

2-jadval

Kuchlanish ko'rsatgichining minimal o'lchovlari

Elektr uskunalarining nominal kuchlanishi, (kV)	Uzunligi, (mm)	
	Izolyatsiyalovchi qism dastaki	
1 kV gacha	Cheklanmaydi	
1 kV dan 10 kV gacha	230	110
10 kV dan 20 kV gacha	320	110
35 kV	510	120
110 kV	1400	600
110 kV dan 220 kV gacha	2500	800

1000 V dan yuqori kontaktsiz kuchlanish ko'rsatgichlari. Kontaktsiz kuchlanish ko'rsatgichlarining ishlash jarayoni, elektrostatik induksiya jarayoniga asoslangan. Asbobning cho'g'lanish lampasi, uning signal elementi hisoblanadi.

Ushbu asbob, 6-35 kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlarida, ochiq va yopiq taqsimlovchi elektr uskunalarida kuchlanish bor-yo'qligini tekshirish uchun mo'ljallangan.

Ushbu kuchlanish ko'rsatgichi ishchi qism, zaryadlovchi uskuna va 110 kV kuchlanishli izolyasiyalovchi teleskopik shtangadan tashkil topgan. Kuchlanish ko'rsatgichi, kuchlanish ostida bo'lgan tok o'tkazuvchi qismga yaqinlashtirilgan sari chastotasi ko'payib boruvchi impulsli yorug'lik signali bera boshlaydi.

Kuchlanish ko'rsatgichi uning sozlilagini tekshiruvchi biriktirilgan qurilma va tok manbaiga ega, hamda zaryadlovchi uskuna bilan jihozlangan.

Kontaktsiz kuchlanish ko'rsatgichi, hamda gazorazryadli lampa osti kuchlanish ko'rsatgichi bilan kuchlanish bor-yo'qligini tekshirish tartibi bir xildir. Ushbu asbobni yerga ulash talab qilinmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Allayev K.R. «Elektroenergetika Uzbekistana i mira», – T.: «Fan va texnologiya», 2009 г., 463 s.
2. Qodirov T.M., Karimov X.G., Saidxodjayev A.G., Gayibov T.Sh., Siddikov I.X., Usmanov E.G., «Pravila ustroystv elektricheskix ustanonok», g. Tashkent, «Uzgosenergonadzor», 2005 g.
3. Umumiy elektr ta'minot uchun mo'ljallangan tizimlarda elektr energiyaning sifat ko'rsatkichlarini o'lchash va analiz qilish usullari., O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi., Toshkent sh., "Mehnat", 2003 y.
4. Сайдов М. К., Жумаев З.И., Муродов Х.Ш., Мардонов Д. Ш. Исследование эффективности применения системы управления асинхронного электропривода Федеральный журнал «наука, техника и образование» о публикации в журнале № 4 (май 2020 г.)

**International Conference on Developments in Education
Hosted from Amsterdam, Netherlands**

<https://econferencezone.org>

30th 2022

April

-
5. Tovboyev A.N., Boynazarov G'.G', Jumayev Z.I., Analysis of Subharmonic Oscillations of the Third Order in Three-Phase Circuits with a Separate Ferromagnetic Element Журнал «International journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology» India dekabr 2019 12229-12233 betlar.
 6. <https://www.google.ru>